

PAPER

INKLYUZIV TA'LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI

Ahmadbekova Risolatxon Botirali qizi ^{1,*}

¹Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi

* ahmadbekova@gmail.com

Abstract

Mazkur ilmiy maqolada inklyuziv ta'limning psixologik, pedagogik va metodologik asoslari yoritilgan bo'lib, unda barcha o'quvchilarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning psixologik asoslarida bolalarning individual rivojlanish xususiyatlari, ehtiyojlari, emotsional holati va motivatsiyasiga doir masalalar ko'rib chiqiladi. Pedagogik asoslarida esa ta'lim jarayonini moslashtirish, differensial o'qitish, qo'llab-quvvatlash xizmatlari, o'qituvchining inklyuziv kompetensiyasi va sinfdagi ijobiy muhitni shakllantirish tamoyillari tahlil etilgan. Metodologik asoslar bo'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individuallashtirilgan ta'lim rejasi, moslashtirilgan o'quv dasturlari, baholash mezonlari hamda inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan samarali metodlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiylashuvini ta'minlash va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Key words: Inklyuziv ta'lim, nogiron shaxslar huquqlari, Pedagoglarning tayyorligi, inklyuziv ta'lim tamoyillari, psixologiya, metodologiya, tizimli yondashuv, individual yondashuv.

Kirish

Bugungi globallashuv va modernizatsiya jarayonlari ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, har bir bolaning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish, ularning ehtiyojidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy

ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi ana shunday yondashuvlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u barcha o'quvchilarning — jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy ehtiyojlaridan qat'i nazar — sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi nafaqat maxsus pedagogika, balki umumiy pedagogika, psixologiya,

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

metodologiya va ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada tahlil etiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayon o'qituvchilardan bolalarning indi vidual rivojlanish xususiyatlarini chuqur anglash, ta'lim muhitini moslashtirish, hamkorlikda o'qitish metodlarini qo'llash hamda ijobiy psixologik iqlimni yaratish kabi ko'plab kompetensiyalarni talab qiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi, metodik ta'minot, moslashtirilgan dasturlar va baholash mezonlari zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida inklyuziv yondashuvning psixologik, pedagogik va metodologik asoslarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. Mazkur ishda aynan ushbu jarayonlarning ilmiy-nazariy mohiyati yoritilib, inklyuziv ta'limning zamonaviy talablarga mos tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillar ko'rib chiqiladi. Inklyuziv ta'limdeganda barcha bolalarning bir maktabda, bir sinfda – bir xil sharoitda ta'lim olishi tushuniladi. Ya'ni, nogironligi bo'lgan bola ham sog'lom bolalar kabi diqqat bilan o'qish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. O'zbekistonda barcha bolalar, oilaviy ahvolidan qat'i nazar, davlat umumta'lim maktablarida ta'lim oladi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Nogironligi bo'lgan bolalar— barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha

“Nogironlik” so'zini eshitganda ko'pchilikning tasavvurida nogironlar aravachasida o'tirgan shaxs yoki yo'l ko'rsatuvchi iti bilan birga bo'lgan shaxs gavdalanadi. Bu tasavvurlar ommaviy axborot vositalarida nogironlikning ko'proq ko'zga tashlanadigan ko'rinishlari targ'ib qilinishi bilan bog'liq. Biroq, ko'plab nogironligi bo'lgan shaxslar surunkali kasalliklar yoki ko'zga tashlanmaydigan holatlar bilan yashaydi. Ko'zga tashlanmaydigan nogironlik (invisible disability) surunkali kasalliklar, sog'liq muammolari yoki kundalik faoliyatga ta'sir etuvchi, lekin tashqi

ko'rinishdan bilinmaydigan holatlarni o'z ichiga oladi.

Nogironlik to'g'risidagi salbiy stereotiplar, afsonalar va noto'g'ri munosabatlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turli murakkabliklar yaratib, ularning jamiyatda to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, bu kabi noto'g'ri tushunchalarga qarshi kurashish nogironlar hamjamiyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nogironlikni chuqurroq tushunish va nogironligi bo'lgan hamda bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash mazkur sohadagi salbiy stereotiplarni yo'q qilish uchun muhim vositadir. Shu munosabat bilan, ushbu masalada faoliyat yurituvchi tashkilotlar va huquqiy tizimlar nogironlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tamoyillarni ilgari suradi.

Shuningdek, kurs doirasida nogironlar huquqlarini aks ettiruvchi asosiy tamoyillar, tushunchalar va ularning umumiy inson huquqlari bilan bog'liqligini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv nogironlik masalasini kengroq miqyosda anglash va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida muhim ahamiyatga ega.

Nogironlikning turlari. Nogironlikning turlari odatda inson organizmining qaysi funksiyalari zararlanganligiga va shaxsning kundalik faoliyatida qanchalik cheklovlarga duch kelishiga qarab tasniflanadi. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti (XST) hamda turli davlatlarning qonunchilik hujjatlarida nogironlik quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

Jismoniy nogironlik. Bu tur mushaklar, suyaklar yoki bo'g'imlardagi buzilishlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, falajlik, amputatsiya, artrit yoki boshqa holatlar. Jismoniy nogironlikning asosiy belgisi harakatlanish va kundalik faoliyatni amalga oshirishda qiyinchiliklar bilan ifodalanadi.

Sensor nogironlik– bu tur eshitish, ko'rish yoki boshqa sezgi organlarining funksiyalaridagi buzilishlarni o'z ichiga oladi. Sensor nogironlik turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ko'rish bo'yicha nogironlik– ko'rlik, past ko'rish darajasi yoki boshqa ko'z nuqsonlari.

Eshitish bo'yicha nogironlik– kar yoki og'ir eshitish qobiliyatining buzilishi.

Aqliy yoki intellektual nogironlik. Bu tur shaxsning intellektual rivojlanishi va bilim olish

qobiliyatidagi cheklovlar bilan bog'liq. Masalan, autizm spektridagi buzilishlar, Daun sindromi yoki boshqa intellektual buzilishlar. Ushbu turdagi nogironlik ta'lim va ijtimoiy integratsiyada qo'shimcha yordam talab qiladi.

Psixologik yoki ruhiy nogironlik. Ruhiy salomatlik bilan bog'liq buzilishlar, masalan, bipolyar buzilish, shizofreniya yoki depressiya. Bunday holatlar shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy aloqalari va mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ichki a'zolar bilan bog'liq nogironlik. Ichki organlar (yurak, o'pka, buyrak va boshqalar) funksiyalaridagi buzilishlar natijasida yuzaga keladigan nogironlik. Bu turdagi nogironlik odatda surunkali kasalliklar, masalan, diabet, yurak yetishmovchiligi yoki astma natijasida paydo bo'ladi.

Ko'p nogironlik (Kross nogironlik). Shaxsda bir nechta turdagi nogironliklar bir vaqtning o'zida kuzatilishi. Masalan, eshitish va ko'rish qobiliyatining birgalikdagi buzilishi yoki aqliy va jismoniy nogironlikning kombinatsiyasi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi — Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

Inklyuziv ta'limning vazifalari — Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

Ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Ta'limda inklyuziyaning konseptual asoslari. Ta'limda inklyuziyaning konseptual asoslari ijtimoiy adolat nazariyasi, inson huquqlari, shaxsni rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy tizimlar nazariyasi,

ijtimoiy konstruktivizm, strukturizm, axborot jamiyati va ijtimoiy tanqid g'oyalariga asoslangan bo'lib, ular innovatsion ta'lim rivoji uchun ijtimoiy texnologiyalarning negizini tashkil qiladi.

Hozirgi bosqichda inklyuziv ta'limni rivojlantirish ko'rsatkichlari:

pedagoglarning alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumiy sinfga qo'shishga tayyorligi;

inklyuziv ta'limga nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki oddiy bolalar orasida ham ehtiyojni baholash;

ta'lim muhitining holati va uni qo'shishga tayyorligi;

o'qituvchilar va ota-onalarning ta'limda inklyuziyaga bo'lgan munosabati.

Pedagoglarning tayyorligi: alohida ehtiyojli bolani umumiy sinfga integratsiya qilish uchun inklyuziv ta'limning asosiy sharti hisoblanadi. Agar alohida ehtiyojli bolaga umumiy ta'limga kirish imkoniyati yaratilsa-yu, uning o'quv ehtiyojlarini qondiruvchi sharoitlar yaratilmasa, bu holat ma'lum ma'noda bolaning sifatli ta'lim olish huquqini buzadi.

Rasmiy integratsiya — bu ko'rinmas kamsitishning bir shakli bo'lib, bunday sharoitlarda bolaning holati yaxshilanmaydi, aksincha, yomonlashadi. Ushbu muammoning yechimi quyidagilarga bog'liq: inklyuziv ta'limning konseptual yondashuvini aniqlash; turli kategoriyadagi alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil qilishning texnologik shartlarini belgilash; inklyuziv ta'limning konseptual asoslarini joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lsa-da, u samarali bo'lishi uchun ta'lim muhiti, pedagoglar va ijtimoiy tizimlarning o'zgarishi talab qilinadi. Bu jarayon nafaqat inklyuziv amaliyotni, balki inklyuziv madaniyatni shakllantirishga ham yordam beradi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan teng huquqlilik asosida ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Bu konsepsiya BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslanadi.

“Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” (1948-yil) har bir insonning ta'lim olish huquqini

asosiy va ajralmas huquq sifatida belgilaydi.

1975-yilda esa “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya nogiron shaxslarning boshqa fuqarolar bilan bir xil huquqlarga egaligini va ularga to‘laonli hayot sharoitlarini yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

1989-yilda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” barcha bolalarning huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi va ularni ta’lim tizimiga to‘liq integratsiya qilishga chaqiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil, 50-modda) – har bir insonning ta’lim olish huquqini belgilaydi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2020-yil, 20-modda) – barcha o‘quvchilar uchun ta’limga teng huquqlarni kafolatlaydi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (2008-yil) – ta’lim olishdagi teng imkoniyatlar va kafolatlarni ta’minlaydi.

“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun (2020-yil) – nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qiladi.

Prezidentning 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori bilan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Mazkur qaror asosida:

Inklyuziv guruh va sinflar tashkil etish; Inklyuziv guruh va sinflar tashkil etish; Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

Maktablarni zarur jihozlar bilan ta’minlash belgilangan.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” qabul qilingan. Ushbu qarorning 16-band, 17-band, 18-band, 19-bandlari.

Pedagogik asoslar: Hamkorlikka asoslangan ta’lim: Nogironligi bo‘lgan bolalar va ularning sog‘lom tengdoshlari o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish uchun hamkorlikda o‘qitish metodikalaridan foydalanish kerak. Nogironligi bo‘lgan va bo‘lmagan bolalarning birgalikda ta’lim olish shaklida ish odatda guruhlarda amalga oshiriladi.

Bu holda maqsad maktab o‘quvchilariga o‘quv materialini birgalikda o‘zlashtirish va

egallangan bilimlarni bir-birlari bilan baham ko‘rish imkoniyatini yaratishdir.

Tenglar murabbiyligi shakli orqali ta’lim odatda juftliklarda olib boriladi.

Bu jarayonda bir o‘quvchi murabbiy rolini o‘z zimmasiga olib, boshqa o‘quvchini o‘rgatadi. Ba’zan bu rollar aniq belgilangan bo‘ladi. Lekin odatda bir dars davomida murabbiy va o‘quvchi rollari o‘zaro almashinadi, bu esa rollarni o‘zaro taqsimlash deb ataladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu usulda olingan natijalar rollar qat’iy belgilangan holatlarga qaraganda ancha samaraliroq bo‘ladi. Navbatma-navbat murabbiy yoki o‘quvchi bo‘lib ishtirok etish nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim jarayonidan ko‘proq foyda olishga yordam beradi, chunki qarama-qarshi rollar bir-birini o‘zaro to‘ldiradi. Murabbiy rolida o‘quvchi darsga sinchkovlik bilan tayyorgarlik ko‘radi, chunki u o‘z juftiga materialni tushuntirishi kerak. O‘quvchi rolida esa, u o‘rganilgan mavzuni qayta ko‘rib chiqib, mustahkamlaydi. Birgalikda ta’limda bo‘lgani kabi, murabbiy va o‘quvchi sifatidagi turli imkoniyatlar rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikkala o‘quvchi ham bilim darajalaridagi tafovut katta bo‘lmagan hollarda eng katta foyda ko‘radi.

Dastlab tenglar murabbiyligi pedagogik amaliyotda yordamchi tadbir sifatida qo‘llanilgan. Bu shaklda sinfdagi kuchsiz o‘quvchini yaxshi o‘zlashtirayotgan sinfdoshi qo‘llab-quvvatlagan. So‘nggi 30 yil davomida butun sinfni tenglar murabbiyligiga jalb qilishga yo‘naltirilgan yangi usullar ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5679836>
2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 25-yanvardagi 46-son qarori <https://lex.uz/docs/-6779571>

3. Xudoyberdiyev.A. Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari. –Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Rasulova.D. Abduraxmonova.N. Maxsus pedagogika va inklyziv ta'lim–Toshkent: 2020.
5. Individual yo'naltirilgan ta'lim tizimi: rivojlanish yo'llari [Matn] / tahrirlangan. ed. L. I. Ivolgina. – Krasnoyarsk: NOKROOPSIO, 2013. – 106 p.
6. Nosova, I. Kichik guruhlarda ishlashning xususiyatlari [Matn] / I. V. Nosova // Boshlang'ich maktab plyus OLDINI va KEYIN. – 2004. – 6-son.
7. Yarullof, A. A. Individual yo'naltirilgan ta'lim tizimi Tarasova, E. I. O'smirlarga o'qitish uchun bo'lajak texnologiya o'qituvchisini tayyorlashning individual yo'naltirilgan tizimi.
8. Loreman.T, Deppeler.J, Harvey.D Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom. Rotledge 2010.